ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Tursunmuhammatov Shohjahon

Namangan davlat universiteti, Iqtisodiyot fakulteti,

Iqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi

XUSUSIY SEKTORLARNI QO'LLAB QUVVATLASHDA OLIB BORILAYOTGAN IQTISODIY ISLOHATLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida xususiy sektorning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatlarining asosiy maqsadlari, yo'nalishlari hamda amaliy natijalari yoritilgan. Jumladan, huquqiy-institutsional islohotlar, soliq va moliyaviy imtiyozlar, infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash va innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish kabi omillar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekiston misolida xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va mavjud muammolar tahlil etilib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar berilgan. Maqola xususiy sektorni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sish, bandlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashning muhimligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Xususiy sektor, soliqlar, imtiyozlar, infratuzilmaviy qo'llab quvvatlash, kichik biznes, tadbirkorlik, huquqiy-institutsional islohatlar

POLICY ON PROMOTING AND SUPPORTING THE PRIVATE SECTOR

Annotation: This article analyzes the role and importance of the private sector in ensuring sustainable economic development. It highlights the main goals, directions, and practical outcomes of state policies aimed at supporting entrepreneurship. In particular, it examines such factors as legal-institutional reforms, tax and financial incentives, infrastructural support, and the promotion of innovative development. The article also reviews the reforms being implemented to develop the private sector in Uzbekistan, identifies existing challenges, and proposes solutions to address them. Overall, the study substantiates the significance of private sector development in ensuring economic growth, employment, and competitiveness.

Keywords: Private sector, taxes, incentives, infrastructural support, small business, entrepreneurship, legal-institutional reforms

ПОЛИТИКА ПО РАЗВИТИЮ И ПОДДЕРЖКЕ ЧАСТНОГО СЕКТОРА

Аннотация: В данной статье анализируются роль и значение частного сектора в обеспечении устойчивого экономического развития. Освещаются основные цели, направления и практические результаты государственной политики по поддержке предпринимательства. В частности, рассматриваются такие факторы, как правовые и институциональные реформы, налоговые и финансовые льготы, инфраструктурная поддержка, а также стимулирование инновационного развития. Кроме того, на примере Узбекистана анализируются проводимые реформы по развитию частного сектора, существующие проблемы и предлагаемые меры по их устранению. Статья обосновывает важность развития частного сектора для обеспечения экономического роста, занятости и конкурентоспособности.

Ключевые слова: Частный сектор, налоги, льготы, инфраструктурная поддержка, малый бизнес, предпринимательство, правовые и институциональные реформы.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biri innovatsiyalardir. Innavatsion texnalogiyalar yordamida kichik biznes va xususiy sektorlarni chuqur qayta tuzish va ish unumdorligini yanada rivojlantirish mumkin. Ma'lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik nafaqat mamlakatning jadal rivojlanishida balki hozirgi kunda dolzarb muammoga aylanib borayotgan ishsizlik masalasini hal qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Xususiy sektor va kichik bizneslarning iqtisodiyotimizdagi juda muhim va salmoqli hissasi, ro'li va ta'siri qisqa qilib aytganda, boshqa hech bir soha va tarmoqlar o'rnin bosa olmaydigan katta ahamiyati bilan davlat va jamiyatning rivojlanishida alohida o'rin egallaydi".

Darhaqiqat, xususiy tadbirkorlik va kichik bizneslarni jadal rivojlanishini-ta'minlash orqali mamlakatimizda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo'lgan o'rta sinf qatlamlarining shakillanishiga va tobora mustahkamlanib borishiga erishilmoqda.

Shunday ekan, endilikda kichik bizneslar va xususiy sektorlar sonini ko'paytirish balki ularning sifatini oshirish orqali murakkab bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan, yuksak texnalogiyalarga asosolangan ishlab chiqarishga o'tish masalasiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim.

Yurtimizda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini yanada chuqurlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining yanada rivojlanishi uchun turli xil yo'llarni ishlab chiqish orqali ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlashga bo'lgan e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda.

Muhokama va tahlillar: Respublikamizda innavatsion faoliyatni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasining Prezidentining **"O'zbekiston – 2030" strategiyasini amalga oshirish to'g'risidagi PF-37 farmoni** — 2024-yil 21 fevralda imzolangan. Ushbu farmon orqali "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" dasturi qabul qilingan hamda fan, ilm-texnika, innovatsiyalar va xususiy sektor bilan bog'liq vazifalar belgilangan.

Bugungi kunda respublikamizda yalpi ichki mahsulotning 52,5 foizdan ko'prog'i kichik biznes sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilyotganiga qaramay, yuqori texnalogik jarayonlarni talab etadigan sanoat tarmog'idagi(19,6%) va eksportdagi(13.4%) ulushi sezilarli darajada emas. Mazkur soha va tarmoqlarda kichik biznes taraqqiyotini ta'minlash, umuman, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida innovatsion jarayonlarni faollashtirish, ayniqsa, kichik biznes sub'yektlarining asosiy innavatsion faoliyatini rag'batlantirish yuqori samara beradi. Kichik biznes sub'ektlarida yangi texnalogiylar va innavatsion g'oyalarni joriy etish, yangi ishlab chiqarish zonalarini paydo qilib, undan samarali foydalanish jarayoni yirik korxonalarga nisbatan tezroq amalga oshadi.

Xususiy sektorlarni yillar kesimida rivojlanish jadvali

Yil	Xususiy sektor ulushi (%)	Xususiylashtirilgan aktivlar (trln so'm)	Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi
2021	≈50%	12 trln	56.9%

2022	≈51%	14 trln	54.6%
2023	≈52%	11 trln	54.3%
2024	52.5%	10 trln	54.3%
2025 (reja)	≈54%	30 trln	Yakuniy statistika ma'lum emas

2021-2025-yillar kesimida xususiy sektor ulushining o'sish dinamikasi iqtisodiyotda xususiylashtirish jarayonlarini bosqichma-bosqich kuchayib borayotganini ko'rsatadi. 2021-yilda xususiy sektor ulushi qariyb 50% ni tashkil etgan bo'lsa, keying yillarda bu ko'rsatkich uzluksiz oshib, 2025-yil reja bo'yicha 54%ga yetishi kutilmoqda. Xuddi shu davrda davlat tasarrufidan chiqarilgan aktivlar hajmi ham keskin o'sish tendensiyasini namayon qilmoqda. 2021-yilda 12 trillion so'mlik aktivlar xususiy sektorga o'tkazilgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 30trillion so'mga yetishi rejalashtirilgan. Bu esa iqtisodiyotda bozor mexanizmlarini kengaytirish, davlat ishtirokini qisqartirish va xususiy mulkchilikni rivojlantirish borasidagi siyosat izchil davom ettirilyotganini bildiradi. Bundan tashqari YAIM dagi xususiy sektor ulushi ham nisbatan barqaror ko'rsatkichlarga ega bo'lib, 2021-yildagi 56,9% dan 2024-yilda 2024-yilda 54,3% atrofida shakllangan. 2025-yil uchun yakuniy statistika hali e'lon qilinmagan bo'lsa-da, mavjud dinamikalar iqtisodiyotda xususiy sektor faolligining saqlanib qolayotganini ta'kidlaydi.

Xususiy sektorlar va kichik bizneslarni rivojlantirishga qaratilgan e'tiborlar tufayli davlat tassarufidagi aktivlar yildan yilga privazitatsiya qilinishi oshib bormoqda. Buning yaqqol isboti sifatida 2021-2024 -yillar oralig'ida davlatga tegishli bo'lgan aktivlar qiymati bo'yicha jami qariyb 47 trillion so'm davlat aktivlari privazitatsiya qilingan. Bu xususiylashtirishlar natijasida "davlat aralashuvidagi korxonalar" soni taxminan yarimga kamaygan. 2025-yil uchun qabul qilingan privazitatsiya dasturiga ko'ra yil davomida 30 trillion so'mlik davlat aktivlari va yer uchastkalari sotilishi rejalashtirilgan. Bu dastur bo'yicha 115 ta korxona aksiya paketi, 659 ta ko'chmas mulk obyekti va 6100 gektar yer savdoga chiqarilishi belgilangan. Bunday islohatlarning ayosiy sabablari davlatning iqtisodiyotini yuqori darajaga olib chiqish bo'lganligi sababli, davlat xususiy sektorlarni qo'llab-quvatlash va ularni sonini ko'paytirishga katta e'tibor qaratmoqda. Privazitatsiyaning bir qator afzalliklarini ko'rib chiqadigan bo'lsak:

Resurslarni samarali boshqarish va raqobatbardoshlik

- Xususiy korxonalar odatda davlat korxonalariga nisbatan samaradorlikni oshiradi: ular bozor sharoitlariga moslashadi, xarajatlarni kamaytiradi, xizmat va mahsulot sifatini yaxshilashga intiladi.
- Agar monopol holatlar yani davlat monopoliyalari xususiy sektorlarga imkon beradigan bo'lsa bo'lsa, bozorda raqobat paydo bo'ladi, bu narxlar va sifat uchun foydali bo'ladi.

Investitsiyalar va innovatsiyalar uchun imkoniyat

- Xususiy investorlar odatda yangi texnologiyalar, samarali boshqaruv, infratuzilma va zamonaviy uskunalar uchun investitsiya kiritishga tayyor — bu esa infratuzilmani, xizmat darajasini va raqobatni oshiradi.
- Xususiylashtirish orqali davlat o'zining iqtisodiy yuki — korxonalarni boshqarish va moliyalashtirish — dan ozod bo'ladi buning natijasida esa davlat resurslari boshqa ijtimoiy yoki strategik sohalarga yo'naltirilishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish va bandlik

- Xususiy sektor kengayganda, yangi korxonalar paydo bo‘ladi, bu esa bandlikni oshiradi, iqtisodiy faollikni kuchaytiradi.
- Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xususiylashtirish va oqilona privatizatsiya O‘zbekiston misolida makroiqtisodiy o‘sishga, investitsiyalar, bandlik va xususiy sektor rivojiga ijobiy ta’sir qilgan.

Davlat xarajatlarini kamaytirish va byudjetga tushum

- Davlat boshqaruvidagi korxonalarni xususiylashtirish — davlat uchun xarajatlarni, subsidiya va ustuvor xarajatlarni kamaytiradi. Bundan tashqari albatta xususiylashtirishdan tushgan daromad davlat byujetiga qo’shimcha manba bo’ladi.

Bunday afzalliklar tufayli davlat iqtisodiyoti yanada rivojlanadi. Shuning uchun ham hukumat xususiylashtirishni qo’llab quvatlashni yanada kuchaytirmoqda bu esa sezilarli darajada iqtisodiy rivojlanishga turtki bo’lmoqda. Natijalarga qaraydigan bo’lsak, davlat korxonalarining kamayishi orqali davlat roli kamaygan, xususiy boshqaruv va raqobat kuchaygan. Davlatga xususiy sektorlar tomonidan to’lanadigan tushumlarga davlat resurslarini qayta taqsimlash, infratuzilma, ijtimoiy sohalar yoki investitsiya sifatida imkon bermoqda. Bundan tashqari 2018-yil 9.3 %, 2024-yil 5.8% va 2025-yil 4.9% ni tashkil etgan ishsizlik darajasining kamayishida sezilarli darajada o’z xissasini qo’shib kelmoqda.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan xususiylashtirish jarayonlari faqat davlat mulkini sotish emas, balki iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan yangilash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, raqobatni kuchaytirish va innovatsion rivojlanishga yo‘l ochish kabi keng ko‘lamli strategik maqsadlarni o‘z ichiga oladi. Xususiy sektorning o‘sishi mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini ta’minlashda asosiy omilga aylanib bormoqda. Bu islohotlarning izchil davom ettirilishi O‘zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. **Kudratov Sh.** O‘zbekistonning investitsiya siyosati.
2. **Jo‘rayev Q., Ikromov A.** O‘zbekiston iqtisodiyoti: islohotlar va rivojlanish bosqichlari.
3. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti (president.uz).** 2021–2024 yillardagi davlat aktivlarini xususiylashtirish statistik ma’lumotlari.
4. **Porter M.** The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1990.
5. **Ulmasov A., Xolmo‘minov S.** Iqtisodiy islohotlar va bozor iqtisodiyoti rivoji. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
6. **UzSAMA — Davlat Aktivlarini boshqarish agentligi.** Xususiylashtirish jarayonlari bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar.